

UDC: 342.4+341.234(045)(575.1)

OZCHILIKLAR HUQUQLARINING KAFOLATLARI VA XALQARO HUQUQ NAZARIYASIDA OZCHILIKLAR TOIFASIGA OID MEZONLAR RIVOJLANISHI

Xayrullayeva Dilbar Abdusamatovna,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0000-0002-2567-1084
e-mail: dilbar.khayrullaeva@gmail.com

Annotatsiya. Ozchiliklar huquqlarining konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari teng huquqlilik va kamshitmaslik tamoyillariga asoslanadi. Zamonaviy xalqaro huquq nazariyasida ozchiliklar toifasiga oid mezonlar rivojlanishi sohaga oid asosiy universal va mintaqaviy xalqaro hujjatlar qabul qilinishi hamda ozchiliklar huquq va manfaatlarini himoyalash mexanizmlari shakllanishi bilan bevosita bog'liq. Jamiyatda bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlik, fuqarolar totuvligini ta'minlash, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona, teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishga qaratilgan demokratik islohotlarning bosh mezoniga aylanib bormoqda. Xalqaro huquq nazariyasida ozchiliklarni aniqlashda ozchiliklar toifasiga oid mezonlar tadqiq etilgan bo'lib, mazkur mezonlarga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq: ma'lum bir davlatning asosiy aholisiga nisbatan miqdor jihatdan oz bo'lgan guruhgina ozchiliklar maqomiga ega bo'lishi (miqdor mezoni); ozchiliklarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularning boshqa ijtimoiy jamoalardan farqlanishi (fuqarolik mezoni); ozchiliklarning o'z madaniy, diniy va tilining o'ziga xosligi hamda o'z manfaatlarini rivojlantirish va talab qila olish imkoniyatining yo'qligi (ustunlik bermaslik mezoni); himoyaga muhtoj ozchiliklarning kamsitilish imkoniyati mavjudligi (kamsitilish mezoni); ozchiliklarning o'ziga xosligini barqaror saqlab qolish hamda birdamlik hissining namoyon bo'lishi va intilishiga asoslanishi (barqarorlik ta'minlanmaganligi mezoni).

Kalit so'zlar: ozchiliklar, himoya qilish, miqdor, fuqarolik, ustunlik bermaslik, kamsitilish, barqarorlik ta'minlanmaganligi mezonlari.

ГАРАНТИИ ПРАВ МЕНЬШИНСТВ И РАЗВИТИЕ КРИТЕРИЕВ ОТНЕСЕНИЯ К НИМ В ТЕОРИИ МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА

Аннотация. Конституционно-правовые гарантии прав меньшинств основаны на принципах равноправия и недискриминации, в современной теории международного права разработка критериев защиты меньшинств напрямую связана с принятием основных универсальных и региональных международных документов и формированием механизмов защиты прав и интересов меньшинств. Повышение культуры толерантности и гуманности в обществе, обеспечение межэтнического и межконфессионального согласия, солидарности граждан, а также укрепление дружественных, равноправных и взаимовыгодных отношений с зарубежными странами является одним из приоритетов государственной политики Узбекистана. Вопрос обеспечения прав и свобод человека в нашей стране становится главным критерием

демократических реформ, направленных на создание комфортных и достойных условий жизни для нашего народа. В теории международного права к критериям отнесения к меньшинствами относятся: количественный критерий – только группа, которая количественно мала по отношению к основному населению конкретного государства, имеет статус меньшинства; гражданский критерий – защита прав и интересов меньшинств и их дифференциация от других социальных общностей; критерий отсутствия предпочтения – отсутствие у меньшинства способности развивать и требовать свою собственную культурную, религиозную и языковую идентичность, а также свои собственные интересы; критерий дискриминации – наличие возможности дискриминации меньшинств, нуждающихся в защите; критерий отсутствия стабильности – основа для стабильного сохранения идентичности меньшинства, проявления и стремления к чувству солидарности.

Ключевые слова: меньшинство, защита, количественный, гражданский, недискриминирование, нестабильность обеспечения критериев.

GUARANTEES OF MINORITY RIGHTS AND THE DEVELOPMENT OF CRITERIA FOR MINORITY GROUP IN THE THEORY OF INTERNATIONAL LAW

Xayrullaeva Dilbar Abdusamatovna,

Independent Researcher of the
University of World Economy and Diplomacy

Abstract. The constitutional and legal guarantees of the rights of minorities are based on the principles of equality and non-discrimination, in the modern theory of international law, the development of criteria for the protection of minorities is directly related to the adoption of the main universal and regional international documents and the formation of mechanisms for the protection of the rights and interests of minorities. Raising the culture of tolerance and humanity in society, ensuring interethnic and inter-confessional harmony, harmony of citizens, as well as strengthening friendly, equal and mutually beneficial relations with foreign countries is one of the priorities of Uzbekistan's state policy. The issue of ensuring human rights and freedoms in our country is becoming the main criterion for democratic reforms aimed at creating comfortable and decent living conditions for our people. In the theory of international law, when determining minorities, the criteria for minority treatment are studied, and we consider it appropriate to include those under these criteria: only a group that is quantitatively small concerning the main population of a particular state has the status of a minority (quantitative criterion); protection of the rights and interests of minorities and their differentiation from other social communities (civic criterion); lack of minority ability to develop and demand their own cultural, religious and linguistic identity as well as their own interests (non-preference criterion); the presence of the possibility of discrimination of minorities in need of protection (discrimination criterion); the basis for the stable preservation of minority identity and the manifestation and aspiration of a sense of solidarity (criterion for the lack of stability).

Keywords: minority, protection, quantitative, civil, non-discrimination, instability of provision criteria.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolarning teng huquqliligi, inson huquqlarining hech bir kamsitishlarsiz amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan bo'lib, uning 18-moddasi-

ga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasida barsha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar". 4-moddasiga muvofiq, "O'zbekiston

Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minalaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”. 31-moddasiga muvofiq esa “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega”.


Zero, bugun mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila bo‘lib yashamoqda. Ular barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilib, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga katta hissa qo’shamoqdalar.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik aloqalari qo’mitali, 138 ta milliy madaniy markaz, O’zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik va madaniy-ma’rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta do’stlik jamiyatni faoliyati O’zbekistondagi barcha millat va elatlarning tarixi, madaniyati, ma’naviy qadriyatlari, an’ana hamda urf-odatlarini asrash va har tomonlama rivojlantirish, millatlara munosabatlarni uyg’unlashtirish, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirishda muhim o’rin tutadi.

Taraqqiyot strategiyasining 74-maqsa-di bevosita jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag’rikenglik muhitini mustahkamlash masalalariga qaratilgan. Akademik A.X. Saidov asosli ta’kidlaganidek, “Jamiyatda do’stlik va ahillik, tinchlik va barqarorlik muhitini mustahkamlash ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, gumanitar va ma’naviy sohalarda islohotlarni izchil amalga oshirish, xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishning muhim omili va zarur sharti hisoblanadi” [1, 52-b.].

2022-yilning 1-yanvar holatiga mamlakatda doimiy aholi soni 35,6 mln kishini tashkil etgan.

Doimiy aholi tarkibida eng yirik etnik gruhlar o’zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq va rus millatiga mansub kishilardan iborat (rasm).



Rasm. O’zbekiston Respublikasi doimiy aholiga nisbatan % hisobida

Respublika doimiy aholisining etnik tarkibi quyidagicha: o’zbeklar – 29,2 mln kishi; tojiklar – 1,7 mln kishi; qozoqlar – 821,2 ming kishi; qoraqalpoqlar – 752,7 ming kishi; ruslar – 720,3 ming kishi; qirg’izlar – 291,6 ming kishi; turkmanlar – 206,2 ming kishi; tatarlar – 187,3 ming kishi; koreyslar – 174,2 ming kishi; ukrainlar – 67,9 ming kishi; ozarbayjonlar – 41,2 ming kishi; beloruslar – 18,5 ming kishi; boshqalar – 426,4 ming kishi.

Material va metodlar

Ta’kidlash joizki, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma-bosqich implementatsiya qilinmoqda. Bugungi kunda O’zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalari milliy qonunchilikda o’z aksini topmoqda. Shu jumladan, Konstitutsiyada kafolatlangan teng huquqlilik va inson huquqlarining hech bir kamsitishlarsiz ta’milanishi hamda kafolatlanishi yurtimizda istiqomat qilayotgan ozchiliklar huquqlarining ta’milanishi va himoyalanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy xalqaro huquq va milliy huquqiy tizimlarida ozchiliklar huquqiy holatini mastahkamlash va mazkur toifadagi shaxslar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda asosiy mezonlarning o'rni va ahamiyati nihoyat muhim hisoblanadi [2, 15-b.].

Ta'kidlash zarurki, mazkur masala bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda rivojlanmoqda [3, 15-b.]. Jumladan, o'tgan asr boshida bir qator olimlar ozchiliklar toifasiga oid mezonlar hamda ularning tasniflanishi to'g'risida tadqiqotlar o'tkazishgan va o'z fikrlarini bildirishgan. Misol tariqasida germaniyalik Dr. Sobernheim [4, 15-b.], Volzendorf K. [5, 55-b.], Epstein L. [6,15-b.], Szagunn, Plettner H. [7, 45-b.], V. Balog Arthur fon [9, 5-b.], britaniyalik Makartney C.A. [10, 23-b.], Noel-Buxton [11, 5-b.], estoniyalik Poll [12, 79-b.], fransiyalik Fouques-Dupark [13, 59-b.] asarlarini keltirishimiz mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (keyinги о'rninda BMT) tizimi shakllanishi hamda sohaga oid bir qator universal va min-taqaviy hujjatlar qabul qilinishi, shuningdek, ozchiliklar huquqlarini kafolatlash mexanizmlari rivojlanishi bilan yondashuvlar tizimlashuvi kuzatilmoqda.

Umumiyl holat to'g'risida gapirganimizda, olim va mutaxassislar ozchiliklar toifasiga oid mezonlar shakllanishi BMT doirasida qabul qilingan 1960-yil 14-dekabrdagi Kolonial davlatlar va xalqlarga mustaqillikni taqdim etish to'g'risidagi deklaratsiya, 1969-yil 11-dekabrdagi Ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanish deklaratsiyasi, 1965-yil 21-dekabrdagi Irqiy kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, 1966-yil 16-dekabrdagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1973-yil 30-noyabrdagi Aperteid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi konvensiya, 1979-yil 18-dekabrdagi Ayollar-

ga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, 1989-yil 30-noyabrdagi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyalar bilan bevosita bog'liqligini e'tirof etishadi.

Amerikalik tadqiqtchi O. Klaynberg [14, 47-b.] asosli ta'kidlaganidek, zamonaviy xalqaro huquq nazariyasida ozchiliklar toifasiga oid mezonlar rivojlanishi BMTning ixtisoslashgan muassasalari tomonidan qabul qilingan hujjatlar qabul qilinishi bilan bog'liq.

Alovida e'tirof etish zarurki, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 47/135-sonli rezolyutsiyasi bilan 1992-yil 18-dekabrdada qabul qilingan Milliy yoki diniy va tilga oid ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya ozchiliklar toifasiga oid mezonlar rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan.

1995-yil 1-fevraldagi "Milliy ozchiliklar himoyasi to'g'risida"gi Strasburg doiraviy Konvensiyasi Yevropa Kengashi, BMT va YXHK/YXHTning milliy ozchiliklar himoya-si borasidagi hujjatlariga asoslangan bo'lib, unda milliy ozchiliklar va ularga mansub shaxslar huquq va erkinliklarining himoya-si inson huquqlari xalqaro himoyasining ajralmas qismi ekanligi, mazkur himoya esa xalqaro hamkorlikning sohasi ekanligi e'lon qilindi.

Ushbu shartnomalarda ozchiliklarning jamoaviy emas, balki individual huquqlari ta'minlangan bo'lib, majburiyatlarni bajarish yuzasidan doimiy nazorat mexanizmi joriy etilmadi. Bu esa ozchiliklar huquqlari himoyasining deklarativ xarakterga ega ekanligi hamda tizimli shaklga ega bo'limganidan dalolat beradi.

Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasining 1993-yil 1201-sonli Inson huquqlari to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasining milliy ozchiliklar to'g'risida qo'shimcha bayonno-ma to'g'risida"gi tavsiyasida ozchiliklar tushunchasiga taklif kiritilgan bo'lib, unga ko'ra, milliy ozchiliklar davlat hududida yashovchi va mazkur davlat fuqarolari hisoblangan,

shu davlat bilan azaliy, o'zgarmas va barqaror aloqalarga ega bo'lgan; aniq ifodalangan, madaniy, diniy yoki til xususiyatlariiga ega bo'lgan; davlatning umumiy aholisi yoki alohida mintaqasining qolgan aholisiga qiyosan oz sonli bo'lishidan qat'i nazar, yetarlicha e'tiborli bo'lgan; o'z madaniyati, an'analari, dini yoki tilidan iborat umumiy o'xshashligini tashkil etuvchi barcha qadriyatlarni birgalikda saqlab qolishga intiluvchi shaxslar guruhidir.

Tadqiqot natijalari

Xalqaro huquq doktrinasida "ozchiliklar" tushunchasini ta'riflash borasida bir qator mezonlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ular borasida yagona yondashuv mavjud emas. Miqdor mezoniga asosan, davlatning asosiy aholisiga nisbatan miqdor jihatdan oz bo'lgan guruhgina ozchiliklar maqomiga ega bo'ladi. O. Klaynberg "...ozchilik dominant guruhga nisbatan miqdor jihatdan oz bo'lishi lozim" yondashuvini qo'llab-quvvatlamaydi [14, 119-b.]

F. Kapotortining fikricha, "guruh ozchilik sifatida tan olinishi uchun "aholining qolgan qismiga qiyosan miqdor jihatdan kam bo'lishi" lozim [15, 48-b.]

A. Eyde ham bu fikrga qo'shib, ozchiliklar "davlat aholisining yarmidan kam bo'lmagligi lozim"ligini ta'kidlaydi [16, 5-b.]

Fikrimizcha, "ozchiliklar" tushunchasini miqdor nuqtayi nazaridan chegaralash maqsadga muvofiq emas.

Fuqarolik mezoni ozchiliklarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda asos bo'lib, ularni boshqa ijtimoiy jamoalardan farqlaydi. M.V. Kovriginaning fikricha, "shu yo'l bilangina davlat ozchiliklar guruhlari va alohida shaxslar huquqlarini himoya qilishi mumkin" [17, 75-b.]

Podkomissiya tomonidan ozchiliklar maqomining mazkur davlat fuqarolarigagina tatbiq etilishi mumkinligi va emigrantlar bu tushuncha doirasiga kirmasligi alohida ta'kidlandi. Qochoqlar, ishchi-migrantlar, ko'chirilgan shaxslar, apatriidlarga nisbatan

ozchiliklar maqomi odatda qo'llanilmaydi. Negaki ular xalqaro huquqda alohida kategoriya sifatida ko'rilib, ularning huquqlari maxsus xalqaro huquqiy hujjatlar va shartnomalar orqali tartibga solinadi.

Ustunlik bermaslik mezoni ozchiliklarning o'z madaniy, diniy va tilining o'ziga xosligi hamda o'z manfaatlarini rivojlantirish hamda talab qila olish imkoniyatining yo'qligi bilan ifodalanadi. BMTning kmsitishlarning oldini olish va ozchiliklar himoyasi borasida maxsus komissiyasi tomonidan xalqaro himoya ostiga tushadigan ozchiliklarning xususiyatlari ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, hukmron holatda bo'lмаган milliy guruhlarga ozchiliklar hisoblanadi. Van Amersfort bu yondashuvni rad etib, "hukmron ozchilik" yondashuvini ishlab chiqdi [18, 151-b.]

G. Jvaniyaning fikricha, "ozchiliklar tomonidan ko'pchiliklar huquqlari cheklangan taqdirda bu ozchiliklar huquqlari himoyasi muammosi emas, balki o'z taqdirini o'zi belgilash masalasıdır" [19, 445-b.]

I.P. Blishenko va A.X. Abashidze tomonidan taklif qilingan "millatlar va xalqlarning kmsitilishi" mezoni himoyaga muhtoj ozchiliklarning nafaqat xalqaro himoyasi uchun, balki ozchiliklarni belgilashda ham asos hisoblanadi. Binobarin, "kmsitilishga uchramagan ozchiliklar zarurat yo'qligi tufayli xalqaro himoya ostiga tushmaydi" [20, 12-b.]

I.S. Katkoning [21, 5-b.] fikricha, mazkur mezon fakultativ hisoblanishi lozim. Negaki ozchiliklar himoyasi va maqomining teng kafolati, ularning hukmron yoki hukmron bo'lмаган holatidan qat'i nazar, barcha turdag'i ozchiliklarga teng tatbiq etilishi lozim. Fikrimizcha, ozchiliklar kmsitishga uchrash holatidan qat'i nazar, xalqaro huquqiy himoya ostiga tushishi va teng kafolat ostida bo'lishi zarur.

Bizningcha, barqaror, diniy yoki til xususiyatlariiga ega bo'lish mezoni ozchiliklarning o'ziga xosligini saqlab qolish maqsadida birdamlilik hissining namoyon bo'lishi bilan

ifodalanib, muayyan jamoa, guruh uzoq vaqt mobaynida o'ziga xosligini saqlab qolganligi hamda bunga intilishiga asoslanadi.

Shaxslarning ozchilikka mansubligi o'zi tomonidan hal qilinishi lozim bo'lib, ularga tanlash huquqi taqdim etiladi. "Ozchilikka mansublikning anglanishi uning mavjudligining davlat tomonidan tan olinishiga olib kelib, ko'pchilik aholi bilan de jure va de facto tenglik, shuningdek, mazkur ozchilikning o'ziga xosligini tan olish hamda madaniy huquqlarni taqdim etish kabi talablarning qo'yilishi bilan kechadi". Ozchiliklar o'z taqdirini o'zi belgilashining subyektiv unsuri uch qismidan iborat: guruhning identifikatsiyasi, individning ozchilikka mansubligi borasidagi qarori, individning ozchiliklar tomonidan qabul qilinishi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Xususan, xalqlarning o'zi tomonidan ularning tub yoki qabilaviy hayot tarzi olib boruvchi xalqlarga mansubligining belgilanishi Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1989-yil 7-iyunda qabul qilingan Mustaqil davlatlarda tub va qabilaviy hayot tarzi olib boruvchi xalqlar to'g'risidagi konvensiya qoidalari tatbiq etiladigan guruhlarning aniqlanishi uchun asosiy mezon sifatida ko'rildi.

S.M. Punjinding [22, 16-b.] fikricha, yuqorida keltirilgan belgilar obyektiv va subyektiv mezonlarni namoyon etadi. O'ziga xos xususiyat, miqdor jihatdan ozchilik, nodominant holat, davlat fuqaroligiga mansublik obyektiv mezonlar hisoblansa, subyektiv mezon esa mazkur xususiyatlarni saqlab qolishga intilishdir.

Xalqaro huquq doktrinasida ozchiliklar tushunchasini ta'riflash borasida faol izlanishlar olib borilayotgan bo'lsa-da, hozirgacha ozchiliklarning umum tan olingen yagona tushunchasi mavjud emas. Dastlabki ta'riflar dan biri Zobernxeym tomonidan taklif qilingan bo'lib, unga ko'ra, "ozchiliklar" – milliy xususiy hayot yuritishga intiluvchi va qodir milliy ajralgan aholi guruhidir.

D. Turk va T. Veyterning fikricha, ozchiliklar deganda, o'z davlatiga ega bo'lgan,

lekin qoidaga ko'ra, boshqa chegaradosh davlatda istiqomat qiluvchi muayyan millatga mansub kishilar guruhi tushuniladi [23, 15-b.; 24]. Ular ozchiliklarni "o'z farqlarini anglagan holda qisman bo'lsa-da, o'z taqdirini o'zi tasarruf etishga intiluvchi guruhlar" deb ta'riflagan.

F. Kapotorti keltirgan ta'rif "an'anaviy" [25, 151-b.] deb topilgan: "Milliy ozchiliklar – bu davlat aholisining asosiy qismiga qiyosan miqdor jihatdan kam sonli bo'lgan, a'zolari shu davlat fuqarolari bo'lgan, ustun mavqegega ega bo'lмаган, aholining qolgan qismidan, diniy, til xususiyatlari bilan farqlanadigan, o'z madaniyati, an'analari, dini va tilini saqlab qolish maqsadida bilvosita bo'lsa-da, birdamlik tuyg'usini namoyon etadigan guruhdir".

Yuqorida keltirilgan mezonlarning barchasini qamrab olgan bo'lsa-da, ozchiliklarning tenglikka erishish maqsadi inobatga olinmadni. J. Deshen ozchiliklarga "miqdor jihatdan oz bo'lgan va hukmron mavqega ega bo'lмаган, ko'pchilik aholidan, diniy va til xususiyatlari bilan farqlanuvchi, davlatda ko'pchilik bilan teng huquqlarga ega bo'lishga yo'naltirilgan kishilar guruhi" deb ta'rif keltirgan.

Fikrimizcha, mazkur ta'rifda keltirilgan "...teng huquqlarga ega bo'lishga yo'naltirilgan..."lik ozchiliklarning nodominant holatini ko'zda tutgan bo'lib, unda ozchiliklarni belgilovchi fuqarolik va birdamlik tuyg'usi mezonlari aks etmagan.

Xulosalar

Yuqoridagilarga asosan, ta'kidlash joizki, ozchiliklar huquqlari ta'minlanishining konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlari teng huquqlik va kamsitmaslik tamoyillariga asosanib, xalqaro huquqiy standartlarga asosan, ozchiliklar maxsus huquqlarini ham e'tirof etish va ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro huquq nazariyasida ozchiliklarni aniqlashda ozchiliklar toifasiga oid mezonlar tadqiq etilgan bo'lib, mazkur mezonlarga quyidagilarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ma'lum bir davlatning asosiy aholisiga nisbatan miqdor jihatdan oz bo'lgan guruhgina ozchiliklar maqomiga ega bo'lishi (miqdor mezoni);

ozchiliklarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularning boshqa ijtimoiy jamoalardan farqlanishi (fuqarolik mezoni);

ozchiliklarning o'z madaniy, diniy va tili ning o'ziga xosligi hamda o'z manfaatlarini

rivojlantirish va talab qila olish imkoniyating yo'qligi (ustunlik bermaslik mezoni);

himoyaga muhtoj ozchiliklarning kamsitilish imkoniyati mavjudligi (kamsitilish mezoni);

ozchiliklarning o'ziga xosligini barqaror saqlab qolish hamda birdamlik hissining namoyon bo'lishi va intilishiga asoslanishi (barqarorlik ta'minlanmaganligi mezoni).

REFERENCES

1. Saidov A.X., Wolzendorf K. Grundgedanken des Rechts der nationalen Minderheiten (Naturrecht des Minderheitenschutzes) [Basic ideas of the rights of national minorities (natural law of the protection of minorities)]. Berlin, 2003.
2. Vorschlage zu einem Entwurf über die Regelung der Minderheiten im Staat [Proposals for a draft on the regulation of the position of minorities in the state]. Prepared by Professor Dr. Sobernheim. The positive right of the national minority. A collection of the most important laws and drafts by Dr. legal Franz Bordin. Berlin, 1921, p. 78.
3. Lindorf L.S., Mamikonants L.G. Ekspluatatsiya turbogeneratorov s neposredstvennym okhlazhdaniem [Operation of turbine generators with direct cooling]. Moscow, Energia Publ., 1972, 352 p.
4. Sobernheim. Das positive Recht der nationalen Minderheit [The positive right of the national minority]. A collection of the most important laws and drafts by Dr. legal Franz Bordin. Berlin, 1928. p. 78.
5. Wolzendorf K. Grundgedanken des Rechts der nationalen Minderheiten (Naturrecht des Minderheitenschutzes) [Basic ideas of the law of national minorities (natural law of the protection of minorities)]. Berlin, 1921.
6. Epstein L. Der nationale Minderheitenschutz als internationales Rechtsproblem [The national protection of minorities as an international legal problem]. Berlin, 1922.
7. Szagunn. Vom Rechte der nationalen Minderheit [On the rights of the national minority]. Berlin, 1923.
8. Plettner H. Das Problem des Schutzes nationaler Minderheiten [The problem of protecting national minorities]. Berlin, 1927.
9. Balog W. Der Internationale Schutz der Minderheiten [The international protection of minorities]. Munich, 1928.
10. Macartney C.A. National states and national minorities. London, 1934.
11. Noel-Buxton. National minorities to-day. London, 1931.
12. Poll V. Kulturautonomie Gesetz der Republik Estland [Cultural Autonomy Law of the Republic of Estonia]. Wurzburg, 1926. DOI: 10.1134/S1023193508080077/.
13. Fouques-Duparc. La Protection des Minorités de race, de langue, et de religion [The Protection of Minorities of race, language, and religion]. Paris, 1922.
14. Klineberg O. The Study of multinational societies. The Multunational Society. Papers of the Ljubljana Seminar. Rowley, 1975, p. 15. DOI: 10.1341/S1023381905087700/.
15. Capotorti F. Study on the rights of persons belonging to ethnic, religious and linguistic minorities. U.N., New York, 1991, p. 45.
16. Eyde A. Vorschlage zu einem Entwurf über die Regelung der Minderheiten im Staat [Proposals for a draft regulation of the position of minorities in the state]. Prepared by Professor Dr. Sobernheim. The positive law of the national.

17. Kovrigina M.V. Obespecheniye prav natsional'nykh men'shinstv v demokraticheskom gosudarstve [Ensuring the rights of national minorities in a democratic state]. *International Public and Private Law*, no. 5, 2007, p. 58.
18. Van Amersfort. The protection of minorities: autonomy and self-determination. 1978, p. 23.
19. Zhvaniya G.Y. Mezhdunarodno-pravovyye garantii zashchiti natsional'nykh men'shinstv. Istoricheskiy opis [International legal guarantees for the protection of national minorities. Historical experience]. Tbilisi, 1959, pp. 3-4.
20. Blishenko I.P., Abashidze A.Kh. Prava natsional'nykh men'shinstv v svete mirovogo opyta [The rights of national minorities in the light of world experience]. *Social Sciences and Modernity*, 1992, no. 4, pp. 125-126.
21. Kat'ko N.S. Kriterii opredeleniya men'shinstva [Criteria for defining a minority]. *Belarusian Journal of International Law*, 2001, no. 4, p. 34.
22. Punzhin S.M. Problema zashchiti prav men'shinstv v mezdunarodnom prave [The problem of protecting the rights of minorities in international law]. *State and Law*, 1992, no. 8, p. 125.
23. Turk D. Norms and institutions within the UN system Relevant to minority issues. Proceedings of the Conference. Colombo, 1988, November 6-10, no. 5, p. 29.
24. Vieter Th. Commentary on the Concept of "National Minorities". *Revue des Droits de l'Homme – Review of Human Rights*, 1974, vol.VII.
25. Capotorti F. Study on the rights of persons belonging to ethnic, religious and linguistic minorities. UN Doc E/CN.Y/Sub. 2/384/Add. 1-7. UN Sales N E 78. XIV. I.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

MAXSUS SON

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.b., y.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillaryeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 30.12.2022-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,11 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 179.
TDYU tipografiyasida chop etildi.